

## **“Millionga obuna” promo-aksiyasi qoidalari**

### **Atamalar va ta’riflar**

**Bank** – “Millionga obuna” aksiyasi tashkilotchisi bo‘lgan xorijiy kapital ishtirokidagi “Invest Finance Bank” aksiyadorlik tijorat banki (“InFinBank” ATB).

**Karta egasi** – mijoz va Bank o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida InFinBANK tomonidan chiqarilgan bank plastik kartasidan foydalanuvchi Bank mijoz.

**Ishtirokchi** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi (rezidenti) bo‘lgan Instagram va Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi Bank sahifalari obunachisi.

**G‘oliblar** – maxsus Randomus dasturi yoki shunga o‘xshash dasturlar orqali aniqlangan “Millionga obuna” promo-aksiyasining 20 nafar ishtirokchisi.

**Sovrin** – Bank tomonidan G‘olibga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobdan chiqarilmagan holda 1 120 000 (bir million bir yuz yigirma ming) so‘m miqdoridagi mablag‘ni bank plastik kartasiga o‘tkazib berish.

**Shaxsni tasdiqlovchi hujjat** – O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish uchun biometrik pasporti, harbiy xizmatchilar uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjat yoki harbiy guvohnoma, ID-karta, yangi turdagi haydovchilik guvohnomasi.

**Shaxsiy ma’lumotlar** – elektron, qog‘oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan, ishtirokchiga tegishli yoki uning shaxsini aniqlash imkonini beradigan ma’lumotlar.

### **1. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur qoidalar “Millionga obuna” promo-aksiyasini (yutuqli o‘yinini) o‘tkazish tartibi, shartlari, joyi va muddatini belgilab beradi.

1.2. Aksiyani o‘tkazish hududi: aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida “InFinBank” ATB bank tizimida o‘tkaziladi.

1.3. Aksiyani o‘tkazish muddati: 2022-yil 23-noyabrdan 2022-yil 21-dekabrgacha (shu kuni ham).

### **2. Aksiya ishtirokchilari**

2.1. Aksiyada O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (rezidentlari) bo‘lgan, 16 yoshdan oshgan, Instagram va Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi Bank sahifalarining barcha obunachilari ishtirok etishlari mumkin.

2.2 “InFinBank” ATB xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari aksiyada qatnashishi mumkin emas.

2.3. Aksiyada ishtirok etish aksiya ishtirokchilarining mazkur Qoidalarga to‘liq roziligini bildiradi.

2.4. Agar aksiya ishtirokchisi ushbu Qoidalarga rioya qilmasa, ishtirokchi aksiyada ishtirok etishni davom ettirish va sovrinni olish huquqidan mahrum bo‘ladi. Sovrinni olish uchun aksiya ishtirokchilari mazkur Qoidalarga muvofiq aksiya o‘tkaziladigan davr davomida, Sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjatlarni imzolash paytigacha o‘zlaridan talab qilinadigan barcha harakatlarni bajarishlari shart.

### **3. Aksiyada ishtirok etish shartlari**

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun aksiya boshlanishidan oldin yoki aksiya o‘tkaziladigan vaqt davomida Instagram va Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi Bank sahifalariga obuna bo‘lish va sharhlarda bir kishini ko‘rsatish (teg qilish) kerak.

3.2. Ishtirokchi aksiyada ishtirok etish vaqtida Bank so‘m kartasining amaldagi egasi bo‘lishi shart emas.

3.3. Agar G‘olib bank kartasiga ega bo‘lmasa, u Sovrinni olish uchun Bankning istalgan filialida so‘m plastik kartasini ochishi kerak.

### **4. Sovrin jamg‘armasi**

4.2. Sovrin: Bank tomonidan G‘olibga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobdan chiqarilmagan holda 1 120 000 (bir million bir yuz yigirma ming) so‘m miqdoridagi mablag‘ni bank plastik kartasiga o‘tkazib berish.

4.3. Mazkur aksiya bo‘yicha sovrin olinishi munosabati bilan yuzaga keladigan barcha tegishli soliqlar va davlat byudjetiga majburiy to‘lovlarni to‘lash Aksiya G‘olibi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

4.4. G‘oliblar sovrinni almashtirishni talab qilish huquqiga ega emaslar.

4.5. Sovrinni olish huquqini uchinchi shaxslarga berish taqiqlanadi.

### **5. Promo-aksiyani o‘tkazish tartibi va sovrinlarni o‘ynash tartibi**

5.1. 2022-yil 23-noyabrdan 2022-yil 21-dekabrgacha (shu kuni ham) ushbu Qoidalarda keltirilgan talablarga javob beradigan shaxslar yutuqli o‘yinda ishtirok etadilar. Yutuqli o‘yin har kuni bank ijtimoiy tarmoqlarida jonli efirda o‘tkaziladi.

5.2. Mazkur Aksiya bo‘yicha yutuqli o‘yin g‘oliblari maxsus Randomus dasturi orqali yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etadigan shunga o‘xshash dasturlar bilan aniqlanadi.

5.3. Bank aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi, nizoli holatlar yoki sovrinni topshirish holatlari bundan mustasno.

5.4. Aksiyada ishtirok etish fakti ishtirokchilarning o‘z ism-shariflari, familiyalari, fotosuratlari va ular haqidagi boshqa materiallardan Bank tomonidan ularga hech

qanday haq to‘lamasdan reklama maqsadida foydalanish mumkinligiga o‘z roziligini berganini anglatadi.

5.5. Bank o‘z xohishiga ko‘ra mazkur Qoidalarga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish huquqini bunday o‘zgarishlar kuchga kirishidan 10 (o‘n) ish kuni oldin [www.infinbank.com](http://www.infinbank.com) veb-saytida ushbu o‘zgartirishlar to‘g‘risida e‘lon joylashtirish sharti bilan o‘zida saqlab qoladi. Bank sovrinlar ro‘yxati va miqdorini, shuningdek, yutuqli o‘yin o‘tkazish muddatini o‘zgartirish yoki uzaytirish huquqiga ega. Bank ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi bilan bog‘liq ravishda ko‘rgan zararlari, qilgan sarflari va boshqa harajatlarini to‘lab yoki qoplab bermaydi.

5.6. Bank sovrin sohibining sog‘lig‘iga (hayotiga), shuningdek uchinchi shaxslarning mol-mulkiga, sog‘lig‘iga yoki hayotiga yutuqdan foydalanish davomida yetgan zarar uchun hech qanday javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

5.7. Mazkur promo-aksiya davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o‘rtasida o‘z ixtiyoriga ko‘ra va o‘zaro tushunish asosida muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizo Bank joylashgan joydagi sud tartibida ko‘rib chiqiladi.

5.8. Bank maxsus Randomus dasturi yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o‘xshash dasturlardan foydalangan holda ijtimoiy tarmoqlarda jonli efirda 20 nafar Asosiy g‘olibni aniqlaydi va Asosiy g‘oliblar sovrindan bosh tortgan va/yoki mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan muddat ichida sovrinni olmagan taqdirda qo‘shimcha ravishda 5 (besh) nafar ishtirokchini zaxira nomzod sifatida aniqlaydi.

5.9. Agar Asosiy g‘olib sovrinni rad etsa va/yoki sovrinni o‘z vaqtida olmasa, u holda sovrinni olish huquqi maxsus Randomus dasturida yoki tasodifiy raqamlarni taqdim etuvchi shunga o‘xshash dasturlarda birinchi bo‘lib aniqlangan zahira nomzodga o‘tkaziladi. Agar birinchi zaxira nomzod sovrinni rad etsa va/yoki sovrinni o‘z vaqtida olmasa, sovrinni olish huquqi ikkinchi zaxira nomzodga o‘tkaziladi.

5.10. Agar barcha nomzodlar sovrinni rad etsa va/yoki sovrinni o‘z vaqtida olmasa, u holda Bank komissiyasining qaroriga ko‘ra, ushbu Qoidalarning 5.8-5.9-bandlarida nazarda tutilgan tartibda g‘oliblarni muqobil aniqlash amalga oshiriladi.

5.11. Agar g‘oliblarni muqobil ravishda aniqlash natijasida, sovrin uni rad etish va/yoki o‘z vaqtida olmaslik natijasida olinmasa, Bank sovrindan o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

5.12. O‘tkazilgan aksiya va g‘oliblarni aniqlash jarayoni yakunlari bo‘yicha, Bank komissiyasining bayonnomasi tuziladi va Bank komissiyasi a‘zolari tomonidan imzolanadi.

5.13. G‘oliblar ismi Bankning rasmiy korporativ veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilinadi.

5.14. Bank sovrin g‘olibiga ijtimoiy tarmoqlarda bildirishnoma yuboradi.

5.15. Ishtirokchi tomonidan Aksiya shartlariga rioya qilmaslik oqibatlarini uchun Bank javobgar emas.

## **6. Sovrinni olish tartibi va muddatlari**

6.1. So‘m plastik kartalarini to‘ldirish Amaliyot boshqarmasi, filiallar va Bankning Bosh ofisining yuridik manzillarida, G‘olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasini taqdim etish va sovrinni topshirish bilan bog‘liq zarur hujjatlarni imzolash sharti bilan amalga oshiriladi.

6.2. G‘olib sovrinni yutganligi to‘g‘risida Bank tomonidan xabardor qilingan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kuni ichida Sovrinni olish uchun Bankga tashrif buyurishga majbur.

6.3. Sovrinni G‘olibga topshirish G‘olib va Bankning tegishli vakili tomonidan imzolangan Qabul qilish va topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

6.4. Bankning sovrinni g‘olibga topshirish bo‘yicha majburiyatlari ular ishtirokchiga topshirilgan va Qabul qilish va topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

6.5. Sovringa egalik qilish huquqi sovrin topshirilgandan vaqtdan boshlab g‘olibga o‘tadi.

6.6. Mukofotning topshirilishi jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarini jalb etgan holda tantanali ommaviy tadbir tarzida tashkil etilishi mumkin.

## **7. Aksiya ishtirokchilarini aksiyani o‘tkazish shartlari, aksiyani o‘tkazishni to‘xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish to‘g‘risida xabardor qilish tartibi**

7.1. Promo-aksiya ishtirokchilariga uni o‘tkazish shartlari va tartibi to‘g‘risida Bank sahifasida, ijtimoiy tarmoqlarda, Internet OAVda va kontekst reklamalarda reklama postlarini joylashtirish orqali xabar beriladi.

7.2. Mazkur promo-aksiya haqidagi batafsil ma‘lumotlar, shuningdek, Aksiya qoidalari Bankning “[www.infinbank.com](http://www.infinbank.com)” rasmiy korporativ veb-saytida, “Aksiyalar” bo‘limida joylashtiriladi.

7.3. Promo-aksiya haqida batafsil ma‘lumotni Bankning ishonch telefoni (+998 71) 202-50-60 va 1214 qisqa raqami orqali ham olish mumkin.

7.4. Aksiya muddatidan oldin to‘xtatilgan, uni o‘tkazish muddatlari uzaytirilgan yoki Qoidalarga o‘zgartirish kiritilgan taqdirda tegishli ma‘lumotlar Bankning “[www.infinbank.com](http://www.infinbank.com)” rasmiy korporativ veb-saytida, “Aksiyalar” bo‘limida joylashtiriladi.

7.5. Shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, Ishtirokchi Bankka o‘z faoliyatini amalga oshirishi, Bank tomonidan mazkur Qoidalarning shartlari bajarilishi uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa maqsadlar uchun Ishtirokchining har qanday

shaxsiy ma'lumotlarini Bank qayta ishlashi va ulardan foydalanishiga muddati cheklanmagan roziligini bildiradi.